

ABDURAUF FITRAT MA'RIFIY PEDAGOGIK QARASHLARI

Doniyorova Durdona Sarvar qizi

Annotatsiya: Mazkur maqola o‘rta osiyolik taniqli jadid mutafakkiri Abdurauf Fitratning ma’rifiy qarashlari va uning ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashi yoritilgan. Fitratning milliy taraqqiyot, ma’naviy barkamollik va maorifning isloh etilishiga qaratilgan g‘oyalari har taraflama tahlil qilingan. Uning ijtimoiy taraqqiyotda islomning modernizatsiyasi, dunyoviy bilimlarni targ‘ib etish va xalqning ilmiy-siyosiy bilimlarini oshirish borasidagi intilishlari asosiy mavzuga aylangan. Fitratning «Rahbari najot» asari misolida u O‘zbekiston xalqining ma’rifat yo‘lidagi kurashlarini tarixiy va falsafiy asoslاب berilgan.

Kalit so‘zlar: Abdurauf Fitrat, jadidchilik harakati, Islom modernizatsiyasi, maorif islohotlari, “Rahbari najot”, din va ma’rifat, yosh avlod tarbiyasi.

Abstract: This article covers the enlightening views of the famous Central Asian Jadid thinker Abdurauf Fitrat and his socio-philosophical worldview. Fitrat's ideas aimed at national development, spiritual perfection and reform of education are analyzed from all sides. His aspirations for the modernization of Islam in social development, the promotion of secular knowledge and the improvement of the scientific and political knowledge of the people have become the main theme. Using Fitrat's work "The Leader of Salvation", he provides a historical and philosophical justification for the struggle of the people of Uzbekistan for enlightenment.

Keywords: Abdurauf Fitrat, Jadid movement, Islamic modernization, educational reforms, "The Leader of Salvation", religion and enlightenment, education of the younger generation.

Аннотация: В данной статье описаны просвещенные взгляды Абдурауфа Фитрата, известного современного мыслителя из Центральной Азии, и его социально-философское мировоззрение. Идеи Фитрата, направленные на национальное развитие, духовное совершенствование и реформу образования, проанализированы со всех сторон. Главной темой стали его стремления к модернизации ислама в общественном развитии, распространению мирских знаний и повышению научных и политических знаний народа. На примере работы Фитрата «Вождь спасения» он дал историко-философскую основу борьбы народа Узбекистана за просвещение.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, движение джадидизм, исламская модернизация, образовательные реформы, «Рахбари наджот», религия и просвещение, воспитание молодого поколения.

KIRISH



Abdurauf Fitrat – O‘zbekiston tarixida taniqli jadid mutafakkiri, yozuvchi, pedagog va ma’rifatparvar sifatida bolalar ta’lim-tarbiyasini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shtan shaxsdir. Uning ta’lim sohasidagi qarashlari va amaliy faoliyati O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining eng muhim qismi bo‘lib, milliy maorifni shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatgan.

O‘rta Osiyodagi jadidchilik harakati murakkab, tarixiy jihatdan serqirra yo‘lni bosib o‘tdi. Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot, islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning falsafiy tajribasiga tayanib, bu tajribani milliy asosda qayta ishlashga intildi, ayni paytda ijtimoiy taraqqiyot yo‘llari haqidagi turli qarashlarning to‘qnashuv maydoni ham bo‘ldi. Jadidlarning ma’rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy va rang-barang bo‘lgan. Unda hozirgi kunimizda ham jamiyatni to‘qlantiradigan, hayajonga soladigan tarixiy vazifa va masalalar qatoriga biz ma’naviy barkamollikka yetishda dinni to‘g‘ri anglab tushunib yetishimiz, huquqiy va iqtisodiy bozor makonini tashkil qilish jarayonini tezlashtirish, taraqqiy etgan ilg‘or demokratik institutlarni bunyod qilish, o‘ziga xos milliy rivojlanishlarni kiritishimiz mumkin. Bu masalalarni hal etib amalga oshirishda muhim omil sifatida islomning modernizatsiyalashuvi, uni qotib qolgan aqidalardan tozalash, fan va ilg‘or texnologiya yutuqlarini egallab borish muammolari maydonga chiqadi.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Abdurauf Fitrat shoir, yozuvchi, dramaturg, pedagog olim— zamon va ijtimoiy muhit bilan yuzma-yuz turib xaqiqatni, millat taqdirini ifodalashga qodir, shijoatli inson, yolg‘on, allov, nohaqlik illatlarini his etgan haq so‘z tolibi, imon farzandi edi. U kurashchan e’tiqod kishisi bo‘lib g‘am-alam buyoqlarini tasvirda aslo soddalashtirmadi. Elimizni nomus va obruyini ardoqlashda o‘z jonini ham ayamadi. Fitrat 1886 yili Buxoroda tugilgan bo‘lib, 1909—1914 yillarda esa Istambulda ta’lim oladi va Turkiya maorifining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shtan. Fitrat Istambulda ham «Buxoro maorifi» jamiyatni nomi bilan rasmiy va bir ochiq jamiyat tuzgan edi. Bu jamiyat o‘zining nomiga muvofiq Buxoro va Turkiston maorifini rivojlanishiga doir muhim ishlarni amalga oshirdi.

Bu jamiyat orqali olg‘a surilgan goyasi va ish rejasida quyidagilar mavjud edi: Buxoro amirligi idorasida ma’lum isloxot — o‘zgarish kiritish g‘oyasi. Buxoro amirligi o‘rniga yangi konstitusion davlatni tanqid qilish g‘oyasi. Maktablarda dunyoviy bilimlar berish bilan birgalikda eski adabiyot va din darslarini o‘z ichiga olg‘an «Usuli jadid» deb atalgan maorif tizimini tashkil etish» g‘oyasi edi. Fitrat amaliyoti ko‘p qirrali bo‘lib, uning asosi jadid harakati bilan bog‘liqdir.

NATIJALAR

Fitratning ta’limga doir qarashlari jadidchilik harakatining asosiy tamoyillari bilan uyg‘unlashgan. U “Usuli jadid” maktablarini tashkil etish orqali zamonaviy bilimlarni o‘rgatish, dunyoviy va diniy ta’limni uyg‘unlashtirish tarafidori edi.

Fitratning fikricha, maktablar faqatgina ilm olish maskani emas, balki insonni ma’naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhim rol o‘ynashi lozim edi.

XIX asr oxirlariga kelib Turkiston o‘lkalarida ham burjua mustamlakalari astasekin paydo bo‘la boshlaydi. Natijada eskilikni yanchib tashlab, rus fan va texnikasini o‘rganib, zamon bilan olg‘a borish yoki feodalizm tuzumida qola berish kerakmi muammosi tugiladi. Fitratning ijtimoiy-falsafiy dunqarashi asarlarida o‘z aksini topgan. 1915 yilda yozgan «Rahbari najot» asari falsafiy ruxda yozilgan bo‘lib, u O‘zbek xalqining istiqlolini asoslab bergen. Bu asarni u Buxoro xoni Amir Olimxonga bag‘ishlab undan ma’rifat yo‘lini ochishga najot istagan edi. Kitobning kirish qismida, o’tmishda podshoxlar rahbarligida ilm-ma’rifat yashnagani haqida gapirib, Amir Sayid ivojlantirishning birdan-bir chorasi maorifni islohhish, yangi qonstitukiya joriy kilish va maorifning yangi tizimini yaratish deb bildi. Fitrat Vatan istiqbolini kuyladi. Yoshlarni Vataniga sodiqliqqa chorladi. Imonli inson Vatanli inson. Imonga e’tiqod Vatandan boshlanadi, degan edi. Imon ruxiy xayotning asosidir. Bunday xayot esa kishilarni faqat yaxshilika undaydi. Fitrat inson uchun xos bo‘lgan ijobiy, salbiy va axloqiy fazilatlarni asoslab beradi. Iffat, xayo yaxshilika yetaklaydi; buxil (baxillik), isrof, nifoq esa yomonlikdir. Bu fazilatlar mazmunini ochishda islom sharoitida amaliy an’ana bolib kelgan qarashlarga suyanadi. Fitratning «Raxbari najot» asarining bir qismi oila tarbiyasiga bag‘ishlangan bo‘lib, butun olam rivojlanish qonuniyatlariga buysunishdir. Bu fikr avlodlar davomliligi, ya’ni qonuniy ravishda tugilish, yashash, umuman rivojlanishni nazarda tutgan edi. Hamma odam ham bir, chunki yaratilish bir gavxardan olingan. Odam birovning g‘amiga befarq bo‘lmasa, tarbiyali bo‘ladi.

Fitrat “Rahbari najot” asarida ta’kidlaganidek, “Millatning kelajagi uning yosh avlodiga bog‘liqdir”. Shuning uchun bolalarga sifatli ta’lim berish va ularda Vatanga muhabbat, imon-e’tiqod hamda insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishni muhim deb bilgan. U ta’lim jarayonida bolalarga shaxs sifatida yondashish, ularning individual imkoniyatlarini rivojlanishni ta’kidlagan.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Fitratning ta’lim-tarbiya masalalaridagi o‘ziga xos yondashuvi uning pedagogik qarashlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. U bolalarni uchta asosiy yo‘nalishda tarbiyalashni zarur deb bilgan:

1. Axloqiy tarbiya: Fitratning fikricha, bolalar avvalo axloqiy poklikka, haqiqatgo‘ylikka va adolatga o‘rgatilishi kerak. U islomiy qadriyatlarni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan uyg‘unlashtirish tarafdoi bo‘lib, bolalarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilgan.

2. Ma’naviy tarbiya: Fitrat bolalarda ma’naviy fazilatlarni rivojlanishga katta ahamiyat bergen. Ularning qalbini yaxshilik, mehr-oqibat va shijoat bilan to‘ldirishni, shuningdek, yosh avlodni ma’rifatli qilishni ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadi sifatida belgilagan.

3. Insoniy tarbiya: Fitratning fikricha, bolalar bir-birlarini hurmat qilishni, kattalarga ehtirom ko'rsatishni va jamiyatning bir qismi sifatida mas'uliyatni his qilishni o'rganishlari lozim.

Fitrat "Usuli jadid" maktablarida ta'lim mazmunini yangilashni taklif etar ekan, unda dunyoviy va diniy fanlarning uyg'unligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratgan. U biologiya, matematika, tarix, geografiya kabi zamonaviy fanlar bilan bir qatorda, Qur'oni Karim va hadislarni o'qitishni ham muhim deb bilgan. Fitratning fikricha, islom dini ilm-fanga qarshi emas, aksincha, ilm olishni rag'batlantiradi. Shu bois bolalar dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda diniy qadriyatlarni ham o'zlashtirishlari zarur.

Fitratning ta'lim-tarbiya masalalariga oid qarashlari uning ko'plab asarlarida aks etgan. Jumladan, "Rahbari najot" asarida yosh avlodni ilm olishga chorlash, "Qiyomat" asarida esa axloqiy buzilishlar oqibatlarini ko'rsatib, bolalarni poklik va ma'rifat sari yo'naltirish g'oyalari ilgari surilgan. Uning didaktik asarlarida ta'lim metodlari, o'qituvchilarning roli va maktab tizimini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Fitrat bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik uslublarni qo'llashga da'vat etgan.

Fitrat asarlarida ilm-fan va din o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi. U "Munozara" asarida farangi tilidan so'zlab, zamonaviy fanlarni o'rganish zarurligini ta'kidlasa [2], "Rahbari najot"da bu g'oyani Qur'on va hadislar asosida asoslashga harakat qiladi [4].

Bu yondashuv Fitratning pragmatik va ilg'or fikrli ziyoli ekanligini ko'rsatadi. U bir tomonidan musulmon jamiyatini modernizatsiya qilishga intilsa, boshqa tomonidan bu jarayonda islom dinining rolini saqlab qolishga harakat qiladi.

Fitrat diniy ta'limni isloq qilish zarurligini alohida ta'kidlaydi. U "Munozara" asarida an'anaviy madrasalar tizimini tanqid qilib, yangi usuldagagi maktablarni targ'ib qilsa [2], "Rahbari najot"da diniy ta'limning yangi dasturini taklif etadi [4].

Bu g'oyalari jadidchilik harakatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan ta'lim islohotlari bilan chambarchas bog'liq edi. Fitrat diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirgan holda, zamonaviy musulmon ziyolisini tarbiyalashni maqsad qilgan.

Fitrat asarlarida diniy tolerantlik g'oyasi ham muhim o'rinni egallaydi. U "Hind sayyohi" asarida turli din vakillari o'rtasidagi muloqotni tasvirlar ekan, o'zaro hurmat va bag'rikenglik g'oyasini ilgari suradi.

Bu yondashuv Fitratning keng dunyoqarashini va uning diniy islohotlar konsepsiyasining insonparvarlik mohiyatini ko'rsatadi. U islom dinini boshqa dinlar bilan muloqotga tayyor, ochiq tizim sifatida ko'rsatishga intiladi.

Fitratning diniy islohotlar g'oyasi XX asr boshi O'zbekiston ijtimoiy-madaniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning asarlari keng tarqalib, ko'plab ziyolilarning dunyoqarashini shakllantirishga yordam berdi. Garchi sovet davrida Fitrat g'oyalari

ta'qib ostiga olingan bo'lsa-da, ular keyinchalik o'zbek ziyyolilari orasida yashirin tarzda tarqalishda davom etdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kelajak avlod Fitratdan nimani o'rganishi kerak? O'z xalqi Vatanini nechoglik ona sajdagoh, Ka'ba, Madinaga tenglashtirib, uni sevdi va sevishga xalqni chorladi. Fitrat islam dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimni o'rganib unga amal qildi. O'tmish tarixi va tarixiy shaxslarga to'gri baho bera oldi. Ayniqsa, tilshunoslik soxasida fonetika va fenologiya, O'zbek tilida so'z yasash usullari hamda leksikologiyasini keng yoritdi. Fitrat insonshunos olim sifatida ham pedagogika fanidagi didaktika va tarbiya nazariyasi qismlarining rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Abdurauf Fitratning bolalar ta'lif-tarbiyasidagi o'rni beqiyosdir. U millatning ravnaqi yosh avlod tarbiyasiga bog'liqligini anglab, bu borada fidokorona mehnat qilgan. Fitratning qarashlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, uning ta'lif tizimini rivojlantirish borasidagi ilg'or fikrlari yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR. ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алимова, Д.А., 2000. История как история, история как наука. Ташкент: Узбекистан.
2. Фитрат, А., 1913. Мунозара. Самарқанд: Матбааи Демурова.
3. Фитрат, А., 1912. Ҳинд сайёҳи баёноти. Истанбул: Матбааи Аҳмад Комил.
4. Фитрат, А., 1915. Раҳбари нажот. Тошкент: Матбааи Ғуломия.
5. Болтабоев, Ҳ., 2007. Фитрат ва жадидчилик. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий қутубхонаси нашриёти.
6. Қосимов, Б., 2002. Абдурауф Фитрат. Тошкент: Шарқ.
7. Каримов, Н., 1991. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиқлол мафкураси. Тошкент: Фан.
8. Ражабов, Қ., 2005. Абдурауф Фитратнинг диний-фалсафий қарашлари. Тошкент: Маънавият.
9. Халид, А., 2007. Ислам после коммунизма: Религия и политика в Центральной Азии. Москва: Новое литературное обозрение.
- 10.Бехбудий, М., 1913. Падаркуш. Самарқанд: Демуров матбааси.